Yuechji va Qang‘larning arxeologik aniqlanishi

2019-yilning 22-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida ochilgan yangi ko‘rgazma xuddi shunday nomlandi.

Ushbu ko‘rgazma O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, O‘zR FA Arxeologik tadqiqotlar instituti va Xitoy Shimoliy-G‘arbiy instituti bilan hamkorlikda O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma ekspeditsiyasining qazishma ishlari natijalariga bag‘ishlandi.




2013-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yahyo G‘ulomov nomidagi Arxeologik tadqiqotlar instituti bilan Xitoy Xalq Respublikasining Shansi provinsiyasidagi Shimoli-g‘arbiy universitetining Arxeologiya bo‘limi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik shartnomasi imzolangan. Ushbu shartnomaning maqsadi er.av. I va eramizning I asrlarida Xitoy hududidan Markaziy Osiyoga ko‘chib kelgan yuechji qabilalarining ko‘chish jarayonlari va bu yerda qoldirgan madaniy izlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Shartnoma asosida dastlabki qazishmalar 2015-yilda Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi Sazag‘an qishlog‘idagi mozor-qo‘rg‘onlarni o‘rganishdan boshlandi. Sazag‘on qishlog‘i hududida tosh davridan tortib to so‘nggi antik davrlargacha bo‘lgan noyob yodgorliklar saqlangan.

Xalqaro ekspeditsiya har xil hajmdagi mozor-qo‘rg‘onlarning 11 ta qabrlarini o‘rgandi. Topilmalar ichida metalldan yasalgan turli tuman qurol-yarog‘lar, kulolchilik idishlari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar hamda oltindan yasalgan zargarlik buyumlari bu yerda yashagan aholining turmush tarzini, hunarmandchiligini, ho‘jaligini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu topilmalarning eng noyoblari ko‘rgazmaga qo‘yilgan.

Mazkur ekspeditsiya olimlari tadqiqot ishlarini Surxondaryo viloyatida ham amalga oshirdi va 2017-yili Boysun tumanidagi Rabot yodgorligida dastlabki qazishmalarni boshladi. Ushbu yodgorlikda ja’mi 94 ta

turli tipdagi qabrlar ochilgan. Bu qabrlardan marhumlarning hayotlik davrida foydalangan turli tuman mehnat va ov qurollari, toshlardan yasalgan taqinchoqlar, zargarlik buyumlari, kulolchilik mahsulotlari topilgan.



Ushbu qabrlardan topilgan topilmalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular Misr, Yunoniston, Kichik Osiyo, Sharqiy Osiyodan keltirilgan. Ushbu hududda yashagan aholi Buyuk ipak yo‘li orqali yuqorida tilga olingan davlatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi.

“O‘zbek va xitoylik olimlari qariyb 10 yildan buyon hamkorlikda arxeologik tadqiqotlarni olib bormoqda. O‘zbekiston va Xitoy davlatlari arxeologik olimlari tomonidan qadimgi yuechji madaniyatini arxeologik tadqiq qilinishi ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona aloqalar qadimdan mavjud ekanligini isbotladi. Va men umid qilamanki, bu hamkorlik va do‘stona aloqalar uzoq yillar davom etadi. Shu arxeologik tadqiqotda ishtirok etgan, bugungi ko‘rgazmani tashkil qilishda yaqindan yordam bergan barchaga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman”, — dedi ushbu ekspeditsiyaning Xitoy tomonidan rahbari professor Van.





Ushbu ekspeditsiya a’zolari 2019-yilda Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yana arxeologik tadqiqotlarni davom ettirishni rejalashtirilgan.

“Yuechji va Qang‘larning arxeologik aniqlanishi” deb nomlangan ushbu ko‘rgazma oktabr oyiga qadar davom etadi.


拉巴特遗址考古发掘收获
Rabot yodgorligi arxeologik
qazuv–tadqiqoti natijalari
拉巴特 M84
Rabot M84